


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 31 963,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizga teng bo'ldi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyator indeksi 114,3 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda
2022- yil yanvar-dekabr oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 103,3 foiz (umumiy ulushning 46,0 foizi), jami xizmatlar - 105,4 foiz (umumiy ulushning 32,7 foizi), sanoat – 115,1 foiz (umumiy ulushning 14,4 foizi) ni tashkil qildi.



Yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2021- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	26 464,3	31 963,1	105,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 575,3	30 895,7	105,5
mahsulotlarga sof soliqlar	889,0	1 067,4	111,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 575,3	30 895,7	105,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 789,7	14 212,1	103,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 150,7	6 553,8	110,5
sanoat	3 325,8	4 436,7	115,1
qurilish	1 824,9	2 117,1	102,1
Xizmatlar	8 634,9	10 129,8	105,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 359,5	1 636,2	106,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 427,0	1 703,6	113,3
boshqa xizmat tarmoqlari	5 848,4	6 790,0	103,2

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'sir sanoat (ishlab chiqarish indeksi 115,1 foiz) va xizmatlar (o'sish sur'ati 105,4 foiz) tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 71,6 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2021- yil yanvar-dekabr oylarida 73,7 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da
(jamiga nisbatan foizda)


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasining ulushi 46,0 foizni tashkil qildi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga (46,1 foiz) nisbatan 0,1 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 21,3 foizni tashkil qilib, 2021 - yil yanvar-dekabr oylariga (20,1 foiz) nisbatan 1,2 punktga ko'pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 32,7 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga (33,8 foiz) nisbatan 1,1 punktga kamaydi.



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Xizmatlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)


Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-dekabr oylari, jamiga nisbatan ulushi)




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘shgan hissassi 3,6 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan.

Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 465,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 foiz o‘shishga erishildi.



*Yanvar-dekabr oylarida viloyat aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o'sish sur'ati*



*Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)*

2021- yil yanvar-dekabr

2022- yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 32,7 foiz (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 33,8 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 5,3 foizni (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 5,3 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 5,5 foizni (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 5,6 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar–21,9 foizni (2021-yil yanvar-dekabr oylarida 22,9 foiz) tashkil etdi.

**O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining
asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari
(2022- yil yanvar-dekabr)**

	<i>O‘zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati % da</i>	<i>yanvar-dekabr 2021 - y.</i>	<i>yanvar-dekabr 2022- y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	888 341,7	105,7	31 963,1	105,7	3,6	3,6
Sanoat	551 050,9	105,2	18 325,8	115,1	3,0	3,3
Iste‘mol mollari	197 892,7	119,4	11 466,1	125,5	5,5	5,8
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	364 522,8	103,6	24 610,4	103,4	6,4	6,7
Investitsiyalar	269 857,5	100,9	8 806,6	94,5	3,5	3,3
Qurilish ishlari	130 767,1	106,6	4 891,7	102,1	3,9	3,7
Chakana tovar aylanmasi	319 288,2	112,3	13 414,8	112,6	4,2	4,2
Xizmatlar, jami	357 554,5	115,9	10 303,2	114,6	2,9	2,9
Eksport (mln. AQSh doll.)	19 309,1	115,9	245,2	106,0	1,4	1,3
Import (mln. AQSh doll.)	30 699,3	120,4	540,3	188,9	1,1	1,8

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 31 963,1 mlrd. soʻmni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,6 foizni tashkil qilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18 325,8 mlrd. soʻmni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,3 foizini) tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati 115,1 foizni tashkil etdi. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 11 466,1 mlrd. soʻmlik xalq isteʼmol mollari (respublikada xalq isteʼmol mahsulotlarining 5,8 foizi) ishlab chiqarilib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 125,5 foizni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 24 610,4 mlrd. soʻmni (respublikada qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarining ulushi 6,7 foiz) tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati 103,4 foizga etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 806,6 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, oʻsish surʼati 2021- yilning shu davriga nisbatan 94,5 foizni (respublikadagi ulushi 3,3 foiz) tashkil etdi.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida 4 891,7 mlrd. soʻmlik (respublikadagi ulushi 3,7 foiz) qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 102,1 foizni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13 414,8 mlrd. soʻmni (respublikadagi ulushi 4,2 foiz), oʻsish surʼati 2021- yilning shu davriga nisbatan 112,6 foizni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha hajmi 10 303,2 mlrd. soʻmni, (respublikadagi ulushi 2,9 foizni) tashkil qildi va 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish 114,6 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 785,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,6 foizni), oʻsish surʼati 151,9 foizni, jumladan: eksport – 245,2 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), oʻsish surʼati 106,0 foizni, import– 540,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,8 foizni), oʻsish surʼati 188,9 foizni tashkil etdi.